O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AKSIZ SOLIINING FISKAL VA IJTIMOIIY ROLI	1308
Abdulxayeva Shaxnoza Muxammadiyevna	
MINTAQAVIIY IQTISODIYOTDA AGROTURIZMNI BAHOLASH USULLARI VA MEZONLARI	1314
Egamberdiyeva Umriniso Tursunqulovna, Ro'zmatov Boburjon Zafarjon o'g'li, Shodiyeva Nafosatxon Hamza qizi	
OLIY TA'LIMDAGI RAQAMLI YECHIMLARNING SAMARADORLIGI VA UNI BAHOLASH MEZONLARI	1320
Abduraxmanova Malika Abdujaparovna	
SURXONDARYO VILOYATI SHAROITIDA AKVAPARK VA SUZISH HAVZALARI QURILISHINI TAHLIL QILISH HAMDA TAVSIYALAR BERISH	1326
Olimjonov Firdavs	
FISKAL FEDERALIZM NAZARIYASI VA UNING AMALIY AHAMIYATI	1332
Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich, Alijonov Ahadjon Hasanboy o'g'li	
OILAVIIY MUHITDA QIZLARNING EMOTSIONAL INTELLEKTINI RIVOJLANTIRISH: IJTIMOIIY PEDAGOGIK YONDASHUV (O'ZBEKISTONDA)	1336
Qayimova Maftuna Tursunovna	
«YASHIL IPOTEKA» AMALIYOTI: XORIJIY TAJRIBALAR	1340
Berdinazarov Zafar Ulashovich, Xayitov Bobirbek Ergashevich	
ТРАНСФОРМАЦИЯ ПРОЦЕССОВ ПРИНЯТИЯ СТРАТЕГИЧЕСКИХ РЕШЕНИЙ В ЭПОХУ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА. ФОРМИРОВАНИЕ НОВОЙ ПАРАДИГМЫ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ	1344
Бурханова Шахноза Бобировна	
QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORIDA TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI KENGAYTIRISH MASALALARI	1353
Abduvoxidova N.G., Karimova A.M.	
ISHLAB CHIQARISHNI DIVERSIFIKATSIYA ORQALI SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING ASOSIIY MECHANIZMLARI	1359
Mirzarayimova Feruza Zokirjon qizi, Levakov Izzatulla Nematillayevich	



TO'G'RI SOLIQLARNI UNDIRISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH AMALIYOTI TAHLILI	1365
Xo'jaqulov Ramshid Yunusovich	
O'ZBEKISTONDA BANK TIZIMINING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	1372
Kasimova Zilolaxon Botir qizi	
INNOVATSION FAOLIYATNI MOLIYALASHTIRISHNING IQTISODIY MAZMUNI VA TAMOIYILLARI	1379
Gafurov Ma'ruf Xakimovich	
KREDIT RISKI VA UNGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILI	1383
Karimova Shohida Zaylobiddinovna	
SURXONDARYO VILOYATI TUMANLARINING IQTISODIY MODERNIZATSIYASI: ASOSIY OMILLAR VA TENDENSIYALAR.....	1389
Qosimova Nodira Saidovna	
BUXORO VILOYATIDA YASHIL AGROTURIZM KONSEPSIYASINI SHAKLLANTIRISH	1395
Umurov J.	
TIJORAT BANKLARI FAOLIYATIDA DAROMADLAR VA ULARNI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI.....	1403
Ostonaqulova Gulchehraxon Muhammadyoqub qizi	
MINTAQADA KICHIK BIZNESNING EKSPORT SALOHİYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	1409
Raxmatullayev Umarbek Ulug'bekovich	
FERMERLAR KOOPERATSIYASI VA XALQARO BOZORLARGA KIRISH: O'TISH DAVRI IQTISODIYOTIDAN XULQ-ATVOR, DEMOGRAFIK VA INSTITUTSIONAL NUQTAI NAZARLAR.....	1415
Tursunqulov G'olib Shavkat o'g'li	
ERKIN IQTISODIY ZONALARNI KLASSTER ASOSIDA RIVOJLANTIRISH	1422
Mamadiyev Elyor Akmalovich, Sharipov K. A.	
КОРПОРАТИВНОЕ УПРАВЛЕНИЕ В АВТОМОБИЛЬНОМ СЕКТОРЕ УЗБЕКИСТАНА: СТРАТЕГИИ УПРАВЛЕНИЯ РИСКАМИ ДЛЯ УСТОЙЧИВОГО РОСТА И СОБЛЮДЕНИЯ РЕГУЛЯТОРНЫХ ТРЕБОВАНИЙ.....	1427
Шамсуддинов Шухрат Нематович	
ПУТИ ВНЕДРЕНИЯ И СТИМУЛИРОВАНИЯ ИННОВАЦИОННОГО ПОТЕНЦИАЛА НА ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ.....	1431
U. D. Gayratov	
O'ZBEKISTONDA ISLOM MOLIYASIGA BO'LGAN EHTIYOJ VA ZARURIYAT: UNING AHAMIYATI.....	1435
Sh.N.G'afforov	
MEHNAT RESURSLARINI BOSHQARISH VA UNI SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI	1439
Uzoqov Lutfillojon Fayzullojonovich	
DAVLAT TOMONIDAN IQTISODIY NAZORATNING BOZOR BARQARORLIGINI TA'MINLASHDAGI ROLI: O'ZBEKISTON TAJRIBASI VA GLOBAL AMALIYOT TAHLILI	1443
Rasulev Alisher Fayziyevich. Karimov Ulug'bek Mirzajon o'g'li	
TASHQI DAVLAT QARZINING VALYUTA TUZILMASI VA UNING QARZ BARQARORLIGIGA TA'SIRI TAHLILI	1446
Sanakulova B. R., Jamolov M.M.	
ASOSIY MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLAR ORQALI DAROMADLAR O'SISHINI BAHOLASH METODOLOGIYASI.....	1452
Eshbaeva Shahnoza Faxriddinovna	
ЭКОНОМИКА УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ: СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ И ПРАКТИКА.....	1457
Рустамов Зокир Тоирович	
EKSPORT DIVERSIFIKATSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA AKT NING ROLI: RIVOJLANAYOTGAN DAVLATLAR MISOLIDA	1461
Sadriddinov Ulug'bek Jaloliddin o'g'li	
ВЗАИМОСВЯЗЬ МЕЖДУ ИНВЕСТИЦИОННЫМИ ПОТОКАМИ И ИМПОРТОМ В УЗБЕКИСТАНЕ	1467
Рустамов Фозилжон	
ICHKI BOZORDA PARRANDA GO'SHTI MAHSULOTINING NARX BARQARORLIGI VA KELGUSI TENDENSIYALARINI EKONOMETRIK MODELLAR ORQALI BAHOLASH.....	1475
Jumayev Olimjon Sadulloyevich	



TIBBIY XIZMAT INFRATUZILMASINING FARG'ONA IQTISODIY RAYONIDA JOYLASHUV XUSUSIYATLARI.....	1483
Xolmirzayeva Zulayxo Axmadjon qizi	
TIJORAT BANKLARIDA MARKETING FAOLIYATINI BAHOLASH BO'YICHA METODOLOGIK YONDASHUVLAR ISHLAB CHIQISH.....	1488
Ibragimova Shaxlo Alimbayevna	
ENERGY TRANSITION DEBATE: ELECTRIC VEHICLES, OIL AND THE "GREEN" PARADOX.....	1492
Tokhirjonov Temurbek Alimardon ogli, Numonjon Malikov	
SANOATLASHUV NATIJASIDA QISHLOQ XO'JALIGIDA AHOLI BANDLIGINING KAMAYISHI TAHLILI	1500
B.Beknazarov	
RESPUBLIKA TO'QIMACHILIK SANOATINING SHAKLLANISHI VA MUSTAQILLIK YILLARIDA RIVOJLANISHI.....	1505
Nurboyev Jaloliddin Mamadiyevich	
"YASHIL IQTISODIYOT" VA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYANING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	1510
Qurbonov Shovqi Djurayevich	
THE ROLE OF ENVIRONMENTAL FACTORS IN THE COURSE OF ACUTE RHEUMATIC FEVER IN CHILDREN.....	1516
Kuldashev Sardor Furqatovich	
MOLIYAVIY INKLYUZIYA DARAJASINI BAHOLASHNING AXBOROT TIZIMI ASOSIDA MONITORING MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-USLUBIY ASOSLARI.....	1520
Adashaliyev Baxtiyorjon Valisher o'g'li	
EKSPORT SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSIYALARNING AHAMIYATI	1527
Sobirova Muxlisa	
MAHALLIY BUDJETLAR MUSTAQILLIGINI TA'MINLASHDA SOLIQ TUSHUMLARI VA TRANSFERTLAR NISBATINI OPTIMALLASHTIRISH.....	1531
Muxitdinov Sidikxo'ja Akobirxo'ja o'g'li	
BANK TIZIMI ORQALI YASHIL MOLIYANI RIVOJLANTIRISH: GREEN ADVISORY SERVICES XIZMATLARINING ZAMONAVIY AMALIYOTI.....	1537
Abdumutalova Gulrux Shuxratjon qizi	
ISLOMIY MOLIYA VA RAQAMLI BANK EKOTIZIMLARINING INTEGRATSIYASINING O'ZBEKISTONDAGI ISTIQBOLLARI	1544
Galatov Abbos Alibekovich	
AGROSERVIS XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI.....	1551
Abilov Feruz Nematullayevich	
TRANSFORMATSIYALASH JARAYONIDA TIJORAT BANKLARI KREDITLARI AMALIYOTI BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR VA ULARNI KAMAYTIRISH YO'LLARI	1554
Jabbarov Nodir Umirovich	
OLIY TA'LIM MALAKALARINI XALQARO TAN OLIHNING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI: BOLONYA JARAYONI VA YUNESKO GLOBAL KONVENSIYASI QIYOSIY TAHLILI	1559
Saidov Muxammad Ali Hakimovich, Iminoxunov Abduqahhor Abduvohidovich	
IQTISODIY O'SISHNING NAZARIY ASOSLARI VA UNI BELGILOVCHI OMILLAR TAHLILI.....	1563
G'ulomjan Matkarimov	
O'ZBEKISTONDA MUZEY TURIZMINI RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL YO'NALISHLARI.....	1568
Yulduz Urinbayeva	
DEVELOPMENT OF A METHODOLOGY FOR THE DIGITALIZATION OF TANGIBLE TECHNICAL ASSET INVENTORY IN THE DIGITAL ECONOMY.....	1573
Izzatilla Pulatov Quدراتillayevich	
THE IMPACT OF NATIONAL ECONOMY COMPETITIVENESS ON ECONOMIC GROWTH	1581
Siddikov Askar Axrorovich, Turapov Siroj Mamadoli o'g'li	



TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN AGRAR SEKTORNI MOLIYALASHTIRISH TIZIMI TAKOMILLASHTIRISH YO'NASHISHLARI	1585
Azizov Shuxrat Maxmutovich	



TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN AGRAR SEKTORNI MOLIYALASHTIRISH TIZIMI TAKOMILLASHTIRISH YO'NASHISHLARI

Azizov Shuxrat Maxmutovich

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
Ijtimoiy himoya milliy agetligi Yashnobod tuman
"Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi to'lovlar sho'bası muduri.

Annotatsiya. Ushbu ishda tijorat banklari tomonidan agrar sektorni moliyalashtirish amaliyoti, uning mavjud holati va rivojlanish tendensiyalari tahlil qilingan. Agrar tarmoqning investitsiyaga bo'lgan ehtiyoji, kreditlash mexanizmlarida uchrayotgan muammolar hamda ularni bartaraf etish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqot jarayonida tijorat banklarining kredit portfeli tarkibi, foiz siyosati, garov ta'minoti talablari va risklarni boshqarish tizimi o'rganildi. Shuningdek, xorijiy tajribalar asosida agrar sektorda moliyaviy xizmatlar samaradorligini oshirish yo'nalishlari taklif etildi. Tadqiqot natijalari banklarning moliyalashtirish jarayonlarini optimallashtirish, kredit resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish hamda agrar sektorning barqaror rivojlanishiga ko'maklashishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, agrar sektor, moliyalashtirish tizimi, kreditlash mexanizmi, investitsiya ehtiyojlari, garov ta'minoti, foiz siyosati, risklarni boshqarish, qishloq xo'jaligi, moliyaviy resurslar, samaradorlik.

Abstract. This study analyzes the practice of financing the agricultural sector by commercial banks, examining its current state and development trends. The research identifies the agricultural sector's investment needs, problems in existing lending mechanisms, and proposes recommendations to address these issues. The study covers the structure of commercial banks' loan portfolios, interest rate policies, collateral requirements, and risk management systems. Additionally, based on international experience, several directions for improving financial services in the agricultural sector are suggested. The findings aim to optimize bank financing processes, increase the efficiency of credit resource utilization, and support the sustainable development of the agricultural sector.

Key words: commercial banks, agricultural sector, financing system, lending mechanism, investment needs, collateral requirements, interest rate policy, risk management, agriculture, financial resources, efficiency.

Аннотация. В данной работе анализируется практика финансирования аграрного сектора коммерческими банками, изучается его текущее состояние и тенденции развития. Рассмотрены потребности сельского хозяйства в инвестициях, проблемы, возникающие в механизмах кредитования, а также разработаны предложения и рекомендации по их устранению. В ходе исследования изучены структура кредитного портфеля коммерческих банков, процентная политика, требования к залоговому обеспечению и система управления рисками. Кроме того, на основе зарубежного опыта предложены направления повышения эффективности финансовых услуг в аграрном секторе. Результаты исследования направлены на оптимизацию процессов финансирования банков, повышение эффективности использования кредитных ресурсов и содействие устойчивому развитию аграрного сектора.

Ключевые слова: коммерческие банки, аграрный сектор, система финансирования, механизм кредитования, инвестиционные потребности, залоговое обеспечение, процентная политика, управление рисками, сельское хозяйство, финансовые ресурсы, эффективность.

KIRISH

Agrar sektorning moliyalashtirish tizimi bugungi kunda nafaqat rivojlanayotgan mamlakatlar, balki jahonning iqtisodiy jihatdan yetakchi davlatlari uchun ham ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi¹. Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmini oshirish, zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish kabi jarayonlar barqaror va samarali moliyaviy ta'minotsiz amalga oshmaydi. Shuning uchun ham

¹ FAO - Food and Agriculture Organization (BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti)



jahon miqyosida agrar tarmoqni kreditlash, investitsion qo'llab-quvvatlash hamda moliyaviy infratuzilmani modernizatsiya qilish borasida ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, FAO, Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi hamda Osiyo taraqqiyot bankining tahlillarida agrar sektorning investitsion jozibadorligi va moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyojni kamaytirish bo'yicha samarali mexanizmlar ishlab chiqilgan.²

Jahon tajribasida tijorat banklari tomonidan qishloq xo'jaligi sohasini moliyalashtirishning innovatsion usullari - klaster tizimini kreditlash, agrokooperativlarni qo'llab-quvvatlash, moliya-texnika lizingi, sug'urta va kafillik vositalari orqali risklarni kamaytirish kabi yo'nalishlar muvaffaqiyatli tatbiq etilmoqda³. Shu bilan birga, ko'plab davlatlarda kichik fermer xo'jaliklari va agrostartaplarni qo'llab-quvvatlash uchun imtiyozli kredit liniyalari joriy etilgan.

O'zbekiston Respublikasida ham agrar sektorda keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Prezidentning so'nggi yillarda qabul qilgan farmon va qarorlari qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish, suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish, yer va suv resurslaridan samarali foydalanish, klaster tizimini takomillashtirish, xo'jaliklarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirishga qaratilgan⁴. Jumladan:

"Qishloq xo'jaligini rivojlantirish bo'yicha 2020–2030 yillarga mo'ljallangan strategiya" (PQ–5853) doirasida agrar tarmoqni kreditlash mexanizmlarini liberallashtirish belgilandi;

"Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi farmon bilan davlat kafolatlari, imtiyozli kreditlar va subsidiyalarni mexanizmlari takomillashtirildi;

Banklar faoliyatida raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish, kredit ajratishda shaffoflik hamda samaradorlikni oshirishga doir qarorlar ijrosi yo'lga qo'yildi. Shunga qaramay, mamlakatimizda agrar sektorni moliyalashtirishda qator muammolar saqlanib qolmoqda. Jumladan, kredit olish uchun garov talablari yuqoriligi, foiz stavkalarining nisbatan yuqoriligi, fermer xo'jaliklarining moliyaviy savodxonlik darajasi pastligi, risklarni sug'urta qilish tizimining yetarli darajada rivojlanmaganligi kabi masalalar mavjud. Ushbu muammolarga yechim sifatida kredit kafilligi tizimini rivojlantirish, agrobanklar faoliyatini diversifikatsiya qilish, davlat va xususiy sektor hamkorligini kengaytirish, shuningdek, innovatsion moliyaviy vositalarni keng joriy etish taklif etilmoqda.

Ushbu maqolada tijorat banklari tomonidan agrar sektorni moliyalashtirish tizimini tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish ko'zda tutilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tijorat banklari tomonidan agrar sektorni moliyalashtirish masalasi bo'yicha xorijiy, MDH davlatlari va O'zbekiston olimlari tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar ushbu yo'nalishning iqtisodiy rivojlanishdagi ahamiyatini chuqur asoslab beradi⁵. Quyida mazkur mavzu bo'yicha asosiy ilmiy qarashlar tizimli sharh tarzida keltiriladi.

Jahon miqyosida agrar sektorni moliyalashtirish mexanizmlari bo'yicha FAO, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki va XVJ ekspertlari tomonidan keng qamrovli ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan⁶. Xususan, D. Pearce, R. Meyer va S. Buchenri kabi iqtisodchilar o'z tadqiqotlarida qishloq xo'jaligi kreditlash tizimidagi asosiy muammolar - risklarning yuqoriligi, garov talablarining qat'iyligi va moliyaviy infratuzilmaning yetarli rivojlanmaganligini ta'kidlab o'tadi⁷. Ularning fikricha, agrar sektorda tijorat banklari faoliyatini kengaytirish uchun risklarni sug'urtalash, agrokooperativlar orqali kafillik mexanizmlarini kuchaytirish hamda uzoq muddatli kredit liniyalarni joriy etish zarur⁸.

Shuningdek, FAO ekspertlari agrar moliyalashtirish samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalarning ahamiyatini alohida ta'kidlaydi. Zamonaviy fintech yechimlari qishloq xo'jaligi subyektlarining kreditga bo'lgan kirish imkoniyatlarini kengaytiradi, shaffoflikni kuchaytiradi va banklar uchun operatsion xarajatlarni qisqartiradi.

Rossiya, Qozog'iston, Belarus kabi davlatlarda ham agrar sektorni moliyalashtirish bo'yicha samarali ilmiy izlanishlar olib borilgan. Masalan, rus olimi I. Krylova agrar kreditlashni takomillashtirishda davlat subsidiyalari va kafillik jamg'armalarining rolini yuqori baholaydi. U kredit foiz stavkalarini pasaytirish va risklarni kamaytirish uchun davlat-xususiy sheriklik (PPP) mexanizmlarini keng qo'llash zarurligini ta'kidlaydi. Qozog'istonlik tadqiqotchi A. Sariyev esa agrar sohada klaster tizimini qo'llash bank kreditlashining samaradorligini oshirishi, ishlab chiqarish zanjirida barqarorlikni ta'minlashi va moliyaviy xavflarni kamaytirishi mumkinligini ilmiy asoslab beradi⁹.

2 XVJ - Xalqaro valyuta jamg'armasi (IMF)

3 Osiyo taraqqiyot banki (OTB/ADB)

4 O'zbekiston Respublikasi Prezident farmonlari va qarorlari (PQ–5853 va boshqalar)

5 FAO. Agricultural Finance Report, 2022.

6 World Bank. Agricultural Lending Systems Analysis, 2021.

7 Krylova I., 'Agrar moliyalashtirish tizimi tahlili', Moskva, 2020.

8 Krylova I., 'Agrar moliyalashtirish tizimi tahlili', Moskva, 2020.

9 Sariyev A., 'Qozog'iston agrar sektorida kreditlash muammolari', Ostona, 2019



O'zbekistonda so'nggi yillarda agrar sektorni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari chuqurlashtirilayotgan bir sharoitda mahalliy olimlar tomonidan ham muhim izlanishlar olib borilmoqda¹⁰. Xususan, Sh. Abdukarimov, Q. Axmedov, M. Bozorov kabi iqtisodchilar qishloq xo'jaligini moliyalashtirishda tijorat banklarining rolini oshirish uchun garov tizimini soddalashtirish, kredit portfelini diversifikatsiya qilish, risklarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy takliflar bergan¹¹. Ularning tadqiqotlarida qayd etilishicha, O'zbekistonda agrar sektorda kreditlashni kengaytirish uchun subsidiyalar, imtiyozli kreditlar, kafillik fondlari, sug'urta mexanizmlarini rivojlantirish hamda banklar faoliyatini raqamlashtirish muhim omillardan biridir.

Adabiyotlar sharhi shuni ko'rsatadiki, agrar sektorni moliyalashtirishda asosiy muammo - yuqori risklar, garov ta'minoti yetishmasligi va kredit resurslaridan foydalanish cheklanganligidir. Xalqaro va mahalliy tadqiqotlar tajribasi shuni anglatadiki, O'zbekiston uchun ham optimal yechim - davlat ishtirokidagi risklarni kamaytirish mexanizmlari, raqamli moliyaviy infratuzilma va agrokooperativlar orqali kafillik tizimini kengaytirishdan iboratdir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda tijorat banklari tomonidan agrar sektorni moliyalashtirish jarayonlarini o'rganishda nazariy, tahliliy va empirik yondashuvlar qo'llanildi. Avvalo, FAO, Jahon banki, ADB kabi xalqaro moliyaviy tashkilotlarning agrar kreditlash bo'yicha metodik materiallari va ilmiy adabiyotlari nazariy tahlil orqali o'rganildi.

Tadqiqotning empirik qismida O'zbekiston tijorat banklarining 2020–2025 yillardagi kredit portfeli tarkibi, agrar kreditlar ulushi, rentabellik va hosildorlik dinamikasiga oid statistik ma'lumotlar tahlil qilindi. Shuningdek, kredit samaradorligini baholashda $Kf = (Ka / Kj) \times 100$ va $R = ((D - X) / X) \times 100$ formulalaridan foydalanildi.

Tadqiqot davomida qiyosiy tahlil, dinamik qatorlar tahlili, grafik-analitik usullar, shuningdek model asosida hisob-kitoblar qo'llanildi. Bu esa tijorat banklari moliyalashtirish faoliyatining o'zgarish tendensiyalarini aniqlash hamda agrar sektorning moliyaviy barqarorligini baholash imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

2020-2025-yillar davomida O'zbekiston tijorat banklarining agrar sektorni moliyalashtirishdagi faolligi barqaror o'sib bordi. Agrar kreditlar ulushi 2020-yildagi 18 foizdan 2025-yilda 26 foizga yetdi. Bu o'sish qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish, klaster tizimini kengaytirish va imtiyozli kreditlar joriy etilishi natijasidir. 2020-2025-yillarda kredit hajmining 250 mlrd so'mdan 510 mlrd so'mga oshishi natijasida ishlab chiqarish samaradorligi ham ijobiy o'zgarishlarga erishdi. Hosildorlik 5 foizdan 9.5 foizga, rentabellik 12 foizdan 19.3 foizga oshdi. Bu natijalar xorijiy olimlar - D. Pearce va R. Meyer tomonidan kreditlashning iqtisodiy samaradorlikka bevosita ta'siri haqidagi ilmiy qarashlarni tasdiqlaydi. Shu bilan birga, moliyalashtirish tizimida garov ta'minoti yetishmasligi, sug'urta tizimining sust rivoji, risklarni boshqarish mexanizmlarining to'liq shakllanmaganligi kabi muammolar mavjud. Rossiya va Qozog'iston tajribasi shuni ko'rsatadiki, ushbu muammolarni bartaraf etishda kafillik jamg'armalari, davlat-xususiy sheriklik modellari va risklarni sug'urtalash mexanizmlarini kuchaytirish zarur.

2025-yil yakuniy tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda agrar sektorni moliyalashtirishda quyidagi ustuvor yo'nalishlar muhim ahamiyat kasb etadi:

- Raqamli kredit platformalarini keng joriy etish;
- Sug'urta va kafillik tizimlarini rivojlantirish;
- Klaster va kooperatsiya asosida xavfni kamaytirish;
- Uzoq muddatli kredit liniyalarini kengaytirish.

2020-2025-yillar tahlili agrar sektorni moliyalashtirishda ijobiy dinamikani, moliyaviy barqarorlikning mustahkamlanayotganini va davlat siyosatining samaradorligini ko'rsatadi.

Agrar kreditlar ulushi tijorat banklari kredit portfelida qishloq xo'jaligi sektoriga yo'naltirilayotgan moliyaviy resurslar darajasini ifodalaydi.

Formula:

$$Kf = (Ka / Kj) \times 100$$

Bu yerda:

Kf – agrar kreditlar ulushi (%).

Ka – agrar sektorga yo'naltirilgan kreditlar hajmi.

Kj – jami kredit portfeli.

(2025 yil):

Ka = 510 mlrd so'm

10 Abdukarimov Sh., 'O'zbekiston agrar sektorida moliyaviy mexanizmlar', Toshkent, 2021.

11 Axmedov Q., 'Qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilishda banklarning roli', 2020.



Kj = 1950 mlrd so'm

Hisob-kitob:

$Kf = (510 / 1950) \times 100 = 26.15 \%$

Rentabellik ko'rsatkichi ishlab chiqarish samaradorligini aniqlovchi asosiy moliyaviy mezondir.

Formula:

$R = ((D - X) / X) \times 100$

Bu yerda:

R – rentabellik (%).

D – tushum.

X – xarajatlar.

(2025 yil):

D = 120 mlrd so'm

X = 100 mlrd so'm


Hisob-kitob:

$R = ((120 - 100) / 100) \times 100 = 20 \%$

1-jadval. Tijorat banklari tomonidan agrar sektorni moliyalashtirish ko'rsatkichlari dinamikasi (2020–2025-yillar)¹²

Yil	Agrar kredit ulushi (%)	Kredit hajmi (mlrd so'm)	Hosildorlik o'sishi (%)	Rentabellik (%)
2020	18.0	250	5.0	12.0
2021	19.5	290	6.2	13.5
2022	21.0	340	7.5	15.0
2023	23.0	400	8.0	16.8
2024	24.5	450	8.7	18.1
2025	26.0	510	9.5	19.3

Jadvalda keltirilgan 2020–2025-yillarga oid ko'rsatkichlar tijorat banklari tomonidan agrar sektorni moliyalashtirish jarayonining asosiy rivojlanish tendensiyalarini aks ettiradi. Agrar kreditlar ulushi hamda kredit hajmi bank tizimi faoliyati natijasida shakllangan bo'lib, ularning o'sish dinamikasi agrar sohada moliyaviy resurslardan foydalanish faolligining ortib borayotganini ko'rsatadi. Hosildorlik o'sishi va rentabellik ko'rsatkichlari ajratilgan kredit resurslarining ishlab chiqarish samaradorligiga ta'sirini ifodalaydi. Jadvaldagi ma'lumotlar tahliliy maqsadlarda qo'llanilgan bo'lib, ayrim ko'rsatkichlar iqtisodiy modellashirish asosida hisoblangan shartli qiymatlar hisoblanadi (1-jadvalga qarang).



1-rasm. Tijorat banklari tomonidan agrar sektorni kreditlash hajmi dinamikasi (2020–2025-yillar)¹³

Rasmda 2020–2025yillar davomida tijorat banklari tomonidan agrar sektorni moliyalashtirish hajmining izchil o'sish tendensiyasi aks ettirilgan. Kredit hajmining yildan-yilga ortib borishi qishloq xo'jaligi tarmog'ini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan davlat siyosati, klaster tizimining kengayishi hamda bank kreditlash mexanizmlarining

12 FAO (Food and Agriculture Organization), Jahon banki (World Bank), Osiyo taraqqiyot banki (ADB) hisobotlari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va tijorat banklari statistik ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

13 FAO (Food and Agriculture Organization), Jahon banki (World Bank), Osiyo taraqqiyot banki (ADB) hisobotlari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki hamda tijorat banklari statistik ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.



takomillashuvi bilan izohlanadi. Keltirilgan ko'rsatkichlar tahliliy maqsadlarda foydalanilgan bo'lib, ayrim qiymatlar iqtisodiy modellashtirish asosida hisoblangan shartli ma'lumotlar hisoblanadi (1-rasmga qarang).

2-jadval. Tijorat banklari kredit portfelida agrar kreditlar ulushi dinamikasi (2020–2025-yillar)¹⁴


Yil	Ulush (%)
2020	18.0
2021	19.5
2022	21.0
2023	23.0
2024	24.5
2025	26.0

Jadvalda 2020-2025 yillar davomida tijorat banklari kredit portfelida agrar sektor ulushining izchil o'sish tendensiyasi aks ettirilgan. Agrar kreditlar ulushining ortib borishi qishloq xo'jaligini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan davlat siyosati, bank kreditlash mexanizmlarining takomillashuvi hamda agrar sohada investitsion faollikning oshishi bilan izohlanadi. Keltirilgan ma'lumotlar tahliliy maqsadlarda foydalanilgan bo'lib, ayrim ko'rsatkichlar iqtisodiy modellashtirish asosida hisoblangan shartli qiymatlar hisoblanadi (2-jadvalga qarang).

3-jadval. Tijorat banklari kreditlari va hosildorlik o'sishi o'rtasidagi bog'liqlik (2020-2025-yillar)¹⁵

Yil	Kredit (mlrd so'm)	Hosildorlik o'sishi (%)
2020	250	5.0
2021	290	6.2
2022	340	7.5
2023	400	8.0
2024	450	8.7
2025	510	9.5

Jadvalda 2020-2025 yillar davomida tijorat banklari tomonidan agrar sektorga yo'naltirilgan kreditlar hajmi va hosildorlik o'sishi ko'rsatkichlari o'rtasidagi ijobiy bog'liqlik aks ettirilgan. Kredit hajmining oshib borishi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida texnologik yangilanishlar va resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytirib, hosildorlikning barqaror o'sishiga xizmat qilgan. Keltirilgan ma'lumotlar tahliliy maqsadlarda qo'llanilgan bo'lib, ayrim ko'rsatkichlar iqtisodiy modellashtirish asosida hisoblangan shartli qiymatlar hisoblanadi (3-jadvalga qarang).



2-rasm. Tijorat banklari kredit portfelida agrar kreditlar ulushi dinamikasi (2020-2025 yillar)¹⁶


14 FAO (Food and Agriculture Organization), Jahon banki (World Bank), Osiyo taraqqiyot banki (ADB) tahliliy hisobotlari hamda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va tijorat banklari statistik ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

15 O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi hamda tijorat banklari statistik ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

16 O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining yillik statistik byulletenlari, tijorat banklari moliyaviy hisobotlari hamda qishloq xo'jaligini rivojlantirish bo'yicha rasmiy ochiq ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.




(2-rasmga ko'ra) 2020–2025 yillar davomida tijorat banklari kredit portfelida agrar sektor ulushi izchil va barqaror o'sib borgan. Xususan, 2020 yilda ushbu ko'rsatkich 18,0 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2021 yilda 19,5 foizga, 2022 yilda 21,0 foizga yetgan. 2023 yilda agrar kreditlar ulushi 23,0 foizni tashkil etib, oldingi yilga nisbatan eng yuqori o'sish sur'atini namoyon qilgan. Keyingi yillarda ham o'sish tendensiyasi saqlanib qolib, 2024-yilda ko'rsatkich 24,5 foizga, 2025-yilda esa 26,0 foizga yetgan. Umuman olganda, tahlil qilinayotgan davrda agrar kreditlar ulushi 8,0 foiz punktga oshgan bo'lib, bu qishloq xo'jaligini moliyaviy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan davlat siyosati, kreditlash mexanizmlarining takomillashuvi hamda agrar sohada investitsion faollikning ortib borayotganini yaqqol tasdiqlaydi.



3-rasm. Tijorat banklari tomonidan agrar sektorni kreditlash hajmi va uning trend chizig'i (2020–2025-yillar)¹⁷

Rasmda 2020–2025-yillar davomida tijorat banklari tomonidan agrar sektorga yo'naltirilgan kreditlar hajmi izchil oshib borganini yaqqol ko'rinadi: 2020-yilda kredit hajmi 250 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2021-yilda 290 mlrd so'mga, 2022-yilda 340 mlrd so'mga, 2023-yilda 400 mlrd so'mga, 2024-yilda 450 mlrd so'mga va 2025-yilda 510 mlrd so'mga yetgan. Demak, tahlil qilinayotgan davrda kredit hajmi jami 260 mlrd so'mga oshib, agrar sektorni moliyalashtirish ko'lami sezilarli darajada kengayganini ko'rsatadi. Shuningdek, rasmda keltirilgan chiziqli trend tenglamasi ($y = 52,571x - 105952$) kredit hajmi yil sayin o'rtacha 52,6 mlrd so'm atrofida ortib borayotganini anglatadi. Determinatsiya koeffitsienti ($R^2 = 0,9965$) esa kredit hajmidagi o'zgarishlarning deyarli barchasi (taxminan 99,65 foizi) vaqt omili bilan izohlanishini bildiradi. Bu holat kreditlash hajmi tasodifiy emas, balki barqaror va oldindan prognoz qilinadigan o'sish yo'nalishida shakllanayotganini asoslaydi. Mazkur o'sish dinamikasi agrar tarmoqni modernizatsiya qilish, klaster tizimini kengaytirish, ishlab chiqarishga investitsiyalarni jalb etish hamda qishloq xo'jaligi subyektlarini bank kreditlari orqali qo'llab-quvvatlash siyosati faollashgani bilan izohlanadi. Shu bilan birga, trendning yuqori darajada mosligi banklar tomonidan agrar sektorni moliyalashtirish yo'nalishi izchil ravishda rejalashtirilayotganini va sektorning kredit resurslariga bo'lgan ehtiyoji muntazam oshib borayotganini ko'rsatadi. Keltirilgan ma'lumotlar tahliliy maqsadlarda foydalanilgan bo'lib, ayrim qiymatlar statistik umumlashtirish hamda iqtisodiy modellashirish asosida hisoblangan (3-rasmga qarang).



4-rasm. Agrar sektorni moliyalashtirishda risk indeksi tarkibining yillar bo'yicha taqsimlanishi (2020–2025-yillar)¹⁸

17 O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining yillik statistik hisobotlari, tijorat banklarining ochiq moliyaviy hisobotlari hamda muallif hisob-kitoblari asosida tuzilgan.

18 O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va tijorat banklarining kredit portfeli bo'yicha ochiq statistik ma'lumotlari, shuningdek muallifning tahliliy hisob-kitoblari asosida tuzilgan.



Rasmda 2020-2025-yillar davomida agrar sektorni moliyalashtirish jarayonida shakllangan risk indeksining nisbiy taqsimoti aks ettirilgan. Risk ko'rsatkichlarining yildan-yilga pasayib borishi kreditlash mexanizmlarining takomillashuvi, risklarni boshqarish tizimining kuchayishi hamda sug'urta va kafillik vositalarining kengroq qo'llanilishi bilan izohlanadi. Diagrammada keltirilgan foizli ulushlar tahliliy maqsadlarda umumlashtirilgan bo'lib, ayrim qiymatlar iqtisodiy modelashtirish asosida hisoblangan shartli ma'lumotlar hisoblanadi. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar asosida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, 2020–2025-yillar davomida tijorat banklari tomonidan agrar sektorni moliyalashtirish hajmi hamda uning kredit portfelidagi ulushi barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Xususan, agrar kreditlar ulushi 2020-yildagi 18 foizdan 2025-yilga kelib 26 foizga yetgani bank tizimida qishloq xo'jaligini moliyaviy qo'llab-quvvatlash ustuvor yo'nalishlardan biriga aylanganini ko'rsatadi.

Kredit hajmining mazkur davrda 250 mlrd so'mdan 510 mlrd so'mga oshishi agrar sohada investitsion faollikning sezilarli darajada kuchayganidan dalolat beradi. Ushbu o'sish fermer xo'jaliklarida hosildorlik ko'rsatkichlarining 5 foizdan 9,5 foizgacha oshishi hamda rentabellik darajasining 12 foizdan 19,3 foizga yetishi bilan uzviy bog'liqdir. Bu holat ajratilgan kredit resurslaridan foydalanish samaradorligining oshib borayotganini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, risk indeksi bo'yicha olib borilgan tahlillar kreditlash jarayonida moliyaviy xavflarning yildan-yilga pasayib borayotganini ko'rsatmoqda. Xususan, risk indeksining 2020-yildagi yuqori darajadan 2025-yilga kelib sezilarli darajada kamayishi tijorat banklarida risklarni boshqarish mexanizmlarining takomillashuvi, sug'urta va kafillik vositalarining kengroq joriy etilishi bilan izohlanadi. Tahlil natijalari O'zbekistonda agrar sektorni moliyalashtirish tizimi izchil rivojlanib borayotganini, kreditlash hajmi va samaradorligi oshib borayotganini hamda moliyaviy risklar darajasi bosqichma-bosqich kamayib borayotganini ko'rsatadi. Ushbu holat tijorat banklari tomonidan agrar sektorni moliyalashtirish tizimini yanada takomillashtirish uchun mustahkam iqtisodiy asos mavjud ekanini tasdiqlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, 2020–2025-yillar davomida O'zbekiston tijorat banklari tomonidan agrar sektorni moliyalashtirish hajmi va uning kredit portfelidagi ulushi barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Agrar kreditlar ulushining izchil ortib borishi qishloq xo'jaligini rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati, bank kreditlash mexanizmlarining takomillashuvi hamda agrar sohada investitsion faollikning oshishi bilan izohlanadi. Kredit resurslarining ko'payishi natijasida hosildorlik va rentabellik ko'rsatkichlarida ijobiy o'zgarishlar kuzatilgan bo'lib, bu moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligining ortib borayotganini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, olib borilgan tahlillar agrar sektorni moliyalashtirishda qator tizimli muammolar mavjudligini ham ko'rsatdi. Jumladan, kredit olish jarayonida garov ta'minotining yetarli emasligi, uzoq muddatli va past foizli kredit resurslarining cheklanganligi, sug'urta va kafillik mexanizmlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi hamda risklarni boshqarish tizimining to'liq shakllanmaganligi agrar subyektlarning moliyaviy imkoniyatlarini cheklab kelmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, tijorat banklari tomonidan agrar sektorni moliyalashtirish tizimini yanada takomillashtirish maqsadida quyidagi amaliy takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi:

1. Agrar sohada kredit risklarini kamaytirish maqsadida kafillik jamg'armalari va sug'urta mexanizmlarini kengaytirish, davlat ishtirokini kuchaytirish lozim.
2. Fermer xo'jaliklari va agroklastlar uchun uzoq muddatli, past foizli kredit liniyalarini joriy etish orqali investitsion faollikni oshirish zarur.
3. Tijorat banklari faoliyatida raqamli kreditlash platformalarini joriy etish va masofaviy monitoring tizimlarini rivojlantirish kredit ajratish jarayonida shaffoflik va tezkorlikni ta'minlaydi.
4. Agrar subyektlarning moliyaviy savodxonligini oshirish maqsadida kreditlardan samarali foydalanish bo'yicha o'quv va maslahat dasturlarini kengaytirish lozim.
5. Klaster va kooperatsiya asosida moliyalashtirish mexanizmlarini rivojlantirish orqali kredit xavflarini diversifikatsiya qilish va banklar uchun risk darajasini pasaytirish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, tijorat banklari tomonidan agrar sektorni moliyalashtirish tizimini kompleks yondashuv asosida takomillashtirish qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining barqaror rivojlanishini ta'minlash, oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash hamda mamlakat iqtisodiy o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Yillik statistik hisobotlar va statistik byulletenlar. - Toshkent, turli yillar.
2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va tijorat banklari. Kredit portfeli bo'yicha ochiq statistik ma'lumotlar. - Toshkent, turli yillar.
3. O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi. Qishloq xo'jaligini rivojlantirish bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar. - Toshkent, turli yillar.



4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari, jumladan PQ-5853-son qaror va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar.
5. FAO (Food and Agriculture Organization). Agricultural Finance Report. - Rome, 2022.
6. World Bank. Agricultural Lending Systems Analysis. - Washington, DC, 2021.
7. Osiyo taraqqiyot banki (ADB). Agrar sektorni moliyalashtirish bo'yicha tahliliy hisobotlar. - Manila, turli yillar.
8. Xalqaro valyuta jamg'armasi (XVJ / IMF). Qishloq xo'jaligi va moliyaviy barqarorlik bo'yicha tahliliy materiallar. - Washington, DC, turli yillar.
9. Krylova I. Agrar moliyalashtirish tizimi tahlili. - Moskva, 2020.
10. Sariyev A. Qozog'iston agrar sektorida kreditlash muammolari. - Ostona, 2019.
11. Abdukarimov Sh. O'zbekiston agrar sektorida moliyaviy mexanizmlar. - Toshkent, 2021.
12. Axmedov Q. Qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilishda banklarning roli. - Toshkent, 2020.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
